

SOXTA SALAFIYLAR TAHDIDI

*Sheraliyev Jo'rabek O'lmasvoy o'g'li
O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi talabasi
Telefon raqami: [97 543 39 33](tel:975433933)*

I. Kirish.

1. Soxta salafiylik tushunchasi va uning kelib chiqishi.

II. Asosiy qism.

2. Soxta salafylarning davolari.
3. Soxta salafylarning faoliyatlari davomida amalga oshirgan ishlari.
4. Soxta salafylarning hozirgi kundagi faoliyatları, ularning tahdidlari va uning yechimi.

III. Xulosa.

Kirish. Soxta salafylarning barqaror aqidamizga zid davolari, o‘z qarashlari va maqsadlarini omma ongiga singdirish yo‘lidagi turli kirdikorlarini hujjat dalillar asosida fosh etish, hozirgi kunimizda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Shuningdek, ahli sunna val jamoa aqidasiga binoan mazkur firqalarning davolari puch ekanligi isbotlanib kelinmoqda. Ular ummatning birligiga katta yov bo‘lmoqdalar. Alloh taolo o‘z kalomida shunday marhamat qiladi: «Barchalaringiz Allohning arqonini (Qur’oni) mahkam ushlanglar, ayrilmanglar. O‘zaro dushman bo‘lganingizda Alloh dillaringizni ulfat qilganini eslanglar. Olov jari yoqasida turganingizda sizlarni undan qutqardi. Hidoyat topishingiz uchun Alloh oyatlarini shu tariqa bayon etadi» (Oli imron surasi, 103-oyat). Bu oyati karimada Alloh dushmanlik va ixtilofga barham berib, yakdillik, hamjihatilik va birlashishga chaqirmoqda.

Hozirgi kunimizda soxta salafylarning yod g’oyalariga qarshi ko‘plab ehtiyot chorralari ko‘rilmoxda. Ekstremizimning tahdidlari va ularni oldini olishga doir chora tadbirlarni amalga oshirish, aholini huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda adashgan oqimlarga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish, uning yuzaga kelishiga imkon beruvchi sabablar va sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha samarali ishlar olib borilmoqda. Bu to‘g’risida davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ham o‘z tashabbuslari bilan chiqib dedilarki: « Muqaddas Islom dinimizni pok saqlash, uni turli xil g’arazli xuruj va hamlalardan, tuhmat va bo‘htonlardan himoya qilish, uning asl mohiyatini unib o’sib kelayotgan yosh avlodimizga to‘g’ri tushuntirish, Islom madaniyatining ezgu g’oyalarini keng targ’ib etish vazifasi hamon dolzarb bo‘lib qolmoqda».

Soxta salafiylik tushunchasi va uning kelib chiqishi. Avvalo biz salafiylik va soxta salafiylik o‘rtasidagi farqni bilib olishimiz zarur. Salaf so‘zi «ajdodlar, avval

yashab o‘tganlar» degan ma’nolarni anglatadi. Hadislarga ko‘ra Payg’ambarimiz alayhissalom zamonlarida hamda undan keyingi ikki davrda yashagan musulmonlar tushuniladi. Shunga ko‘ra islom ulamolari sahobiy, tobein va tab’a tobein, ya’ni ilk musulmonlarni «salafi solih» yani «solih ajdodlar» deb hisoblashadilar. Ulardan keyingi davrlarda yashagan musulmonlarga nisbatan «salaf» yoki «salafiyalar» tushunchalarini ishlatish mumkin emas. Bundan kelib chiqadiki hozirgi kunda soxta salafylarning «biz salafiyalarga ergashuvchi haqiqiy mo‘min salafiyalmiz» degan iddaolari yo‘qqa chiqadi. Islom dinida sobit bo‘lgan, barcha baxs va barcha dushmanliklarga qarshi sobit turuvchi haq yo‘lda bo‘lgan ummat esa bu ahli sunna val jamoadir va aynan ahli sunna val jamaa soxta salafylarning ashaddiy dushmani hisoblanadi. Aytib o‘tishimiz joizki, Rosululloh sollollohu alayhi va sallam ketma-ket tartib bilan zikr qilib aytgan hadislarida ya’ni: Abdulloh ibn Mas’ud roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Rosululloh sollollohu alayhi va sallam : «Insonlarning eng afzali mening asrimdagilar, so’ng ulardan keyin keladiganlar, so’ng ulardan keyin keladiganlar, so’ng yolg’on yoyiladi, xatto shunday qavmlar keladilarki, ularning guvohliklari qasamlaridan, qasamlari esa guvohliklaridan o’zib ketadi» dedilar» (Buxoriy rivoyati). Bu hadisdagi «eng afzal» deya guvohlik bergan uch asrlik davr haqiqatdan ham islom olamining oltin davridir. Shu hadisga asosan islom dinining dastlabki uch asrga mansub avlodlari eng yaxshi solih insonlar, deb e’tirof etiladi. Bugungi kunda mazkur to’rt fiqhiy mazhab - Hanafiylik, Molikiylik, Shofi’iylik va Hanbaliylik mazhablari asoschilari va ularning izdoshlari hadisda maqtab o’tilgan avlod vakillaridan hisoblanadilar. Shuningdek, Islomdagi end afzal va ergashishga munosib bo‘lgan asrlar haqida so’z ketganda «salaf» so’zining mazkur istilohiy ma’nosи ishlatiladi va tepada sanab o’tilgan mazhablar ham aynan shu davrlarda vujudga kelgandir.

Soxta salafiyalar esa islomdagi ahkom va fatvolarni har bir zamon taqozosiga qarab emas balki hijriy sananing dastlabki uch asriga muvofiq ravishda hayotga tatbiq etishni targ’ib qiluvchi oqimdir. Bu oqim arab va islom mamlakatlarida tarqalgan bo‘lib Markaziy Osiyoga ham kirib kelgan. Bu oqim tarafdarlari islom dinining har bir zamon va har bir makonga moslasha olishini tan olmaydilar. O’n to’rt asrdan beri islomning yetuk allomalari, faqihu mujtahidlari qabul qilgan fatvolarga amal qilishga qarshi chiqadilar. Shuni ham ta’kidlab o‘tishimiz zarurki, soxta salafiyarni o’zlari e’tirof etadigan qo’shtirnoq ichidagi ulamolari birorta sahih hisoblanuvchi ustozni eshigini qoqmagan insonlardir. So’ngi yillarda «salafi solihlarga ergashish» shiorini niqob qilib olgan musulmon jamiyatlarini ilk islom davriga qaytarishni targ’ib qiluvchi mutaassib soxta salafiyalar paydo bo‘lganini alohida qayt etish lozim. Ular o’zlarining puch g’oyalarini ushbu hadis bilan oqlashadi: Abdulloh ibn Mas’ud roziallohu anhudan rivoyat qilinadi «Rosululloh sollollohu alayhi va sallam : «Insonlarning eng afzali mening asrimdagilar, so’ng ulardan keyin keladiganlar, so’ng ulardan keyin

keladiganlar, so'ng yolg'on yoyiladi, xatto shunday qavmlar keladilarki, ularning guvohliklari qasamlaridan, qasamlari esa guvohliklaridan o'zib ketadi» dedilar» (Buxoriy rivoyati).

8 asr va 9 asr boshlarida «Qur'onning yaratilganligi» haqidagi g'oyani bayroq qilib olgan mo'taziliya oqimi tarix sahnasiga chiqadi. Bunday fikrlarga qarshi keskin kurash, o'z navbatida, «salafi solih»lar an'anasiga qaytish haqidagi g'oyalarni kun tartibiga qo'yadi hamda soxta salafiylik harakati shakllanishiga zamin yaratdi. Biroq bu davrda bu harakat mustahkam nazariy asosga ega emas edi. Soxta salafiylikning zarur aqidaviy, huquqiy va falsafiy asoslarga ega bo'lishi suriyalik Ibn Taymiya (1263-1328) faoliyati bilan bog'liq. Umri davomida o'zining agressiv qarashlari tufayli to'rt marta qamoq jazosiga tortilgan va 1328-yilda qamoqxonada vafot etgan bu shaxs harakatning nazariy asoslarini belgilab bergenini barcha mutaxassislar e'tirof etadilar.

Ibn Taymiya butun umrini shu ahmoq hashaviylarning mazhabini targ'ib qilish va unga da'vat etishga bag'ishladi. Kitoblardan adashib qolishi mumkin bo'lган nozik nuqtalarni ko'rsatib beradigan ustozsiz, o'z tushunchasi bo'yicha aql va naqlni jamlab, fikrlarini ommaga targ'ib qildi. Faol, rivojlangan aql va sahif naqillar birlashib harakat qilganida ahmoqlarning safsatasidan himoyalanishga ehtiyoj bo'lmasdi. Lekin aql sobiy (yulduzga topinuvchi) ning aqli bo'lsa, naql go'dakning naqli bo'lsa, ularning birlashib qolgan harakati ham himoyaga muhtoj bo'lib qolaverarkan. Ibn Taymiya go'yoki, asrlar davomida islomga turli bid'atlar kirib qolganini iddao qilib, jamiyat va musulmonlarning kundalik turmush tarzi uning talqinidagi Qur'on va sunnatga asoslangan holda qatiy tartibga solinishi zarurligi haqidagi g'oyani ilgari surdi. Uning «davlatni shariat asosida boshqarmayotgan hukmdorga jihod e'lon qilish mumkin»ligi haqidagi qarashlari, bu borada e'lon qilgan «fatvo»lari Islom g'oyalari bilan niqoblangan radikal siyosiy g'oyalarning shakillanishiga zamin yaratdi. Shu tariqa dinni yaxshi anglamagan, Qur'on ilmlarini va fiqhiy usul qoidalarni bilmagan avom xalqning unga ergashishi natijasida, soxta salafiylik g'oyalari keng yoyildi va turli o'lkalarga tarqala boshladi. Bunday vaziyatdan foydalanib qolish ilinjida bo'lган turli tashkilotlar, ularni qo'llab quvvatlab moliyalashtirishni o'z zimmalariga olishdi va turli xil firqalar kelib chiqishiga sababchi bo'lishdi.

Soxta salafiylarning davolari. Soxta salafiylar faqat radikal qarashga ega bo'lib qolmay, ular ilmsizliklari tufayli na bir fiqhiy usulga, na bir aqida qoidalariiga to'g'ri keladigan fikrni ilgari surishmaydi. Shuningdek, ular o'zlarining qo'shtirnoq ichidagi hujjat dalillarini ham keltirishadi. Ular eng ko'p targ'ib qiladigan fikr mulohazalari bu mazhablarni rad etishdir va buni Alloh va banda o'rtasida vosita deb hisoblab mazhablarga ergashishni shirk deb atashadi. Vaholanki, ular Payg'ambar alayhissalom aytgan hadislari bo'yicha ish tutishimiz kerak deb dastlabki uch davrni nazarda tutishadi. Ularni bu da'volarining o'zida ularga raddiya bordir, ya'ni Abu Hanifa tobein, Imom Molik, Imom Shofe'i va Imom Ahmad taba'a tobe'indirlar. Soxta

salafiyarlari davolari to'g'ri bo'lsa ular aslida mazhablarga ergashishlari zarur bo'lar edi. Lekin, ular ilmsizliklari tufayli hukmni Qur'on va sunnatdan olamiz deyishadi va mazhablarni rad etishadi. Vaholanki, mazkur to'rt mazhablar bo'limganida duch kelgan odam o'zini mujtahid deb e'lon qilib, musulmon ummatining boshi ixtloflardan chiqmay qolishi turgan gap edi. Ibn Rajab Hanbaliy rohmatullohi alayhi o'zining «To'rt mazhabdan boshqaga ergashganga raddiya» nomli kitobida quyidagilarni yozadi: « Alloh taolo o'z hikmati taqozosi ila dinni ushslash va muhofaza qilish uchun odamlarga imomlarni chiqarib berdi. Ularning ilmlari, bilimlari, fatvo va hukmlar ilmida ko'zlangan maqsadga erishganlarini hamma tan olar edi. Ular ra'y va hadis ahlidan edilar. Barcha odamlar fatvoda ularga murojaat qiladigan, hukmlarni bilishda ham ularga qaytadigan bo'lismi. Alloh taolo ular uchun mazhablarini tartibga soladigan va qoidalarini tahrir qiladigan zotlarni qoim qildi. Oxir-oqibat ulardan har bir imomning mazhabi, uslubi, qoidalari va fasllari aniqlandi. Barcha hukmlar o'shalar orqali chiqariladigan, halol va harom haqidagi kalom tartibga solinadigan bo'ldi. Bu narsa mo'min bandalar uchun Alloh taoloning lutfu karami, ushbu dinni muhofaza qilish sabablaridan bo'ldi».

Ibn Taymiya Payg'ambar alayhissalom, sahobiylar va avliyolarning qabrini ziyyarat qilish hamda tavhid, Allohning makoni, takfir va boshqa aqidaviy masalalarda ash'ariylik va moturidiylikka zid fikrlari o'sha davr musulmon ulamolarining keskin noroziligiga uchrab, ko'plab raddiyalar bitildi, keskin kurash olib borildi. Shunday bo'lsa-da, bunday g'oyalar keyinchalik turli mataassib guruh va harakatlar yetakchilari mafkurasiga asos bo'lib xizmat qildi.

Ular o'zlarini bu da'volari bilan ahli sunna val jamoani ijтиҳодлари, fiqhiy usul qoidalarini va aqidaviy qarashlarini rad qilishadi va o'zlarini haqiqiy Qur'on va sunnatga ergashayotgandek ko'rsatishadi. Shu o'rinda Xofiz Murtazo ahli sunna haqida shunday deydi: «Ahli sunnadan murod to'rtta toifadir: 1. Muhaddislar. 2. So'fiylar. 3. Ash'ariylar. 4. Moturudiylar». Alloma yana aytadi: «Bilishsinki, ikki imom ham ya'ni, Imom Abulhasan Ash'ariy va Imom Abu Mansur Moturudiy o'zlari bir narsani ixto qilishmagan, yangi yo'l topishmagan. Ular Rosululloh solollohu alayhi vasallamning sahobalari yo'lini tutishgan, isbot qilishgan». Soxta salafiylar esa aqidaviy yo'nalishlar va so'fiylarni kufrda ayblab, ularni rad etadilar. Ibn Taymiyaning aqidaviy va fiqhiy masalalarda mujtahidlar kengashi - ijmoga xilof nazariyotlari umumiylis hisobda oltmisiga yaqin masalada bo'lgan (Xofiz Valiyuddin Iroqiy, «al-Ajvibatul marziya anil asilatilmakkiya»). Masalan, uning fikricha, Allohning kalomi qadim va azaliy emas, balki hodis – Alloh tomonidan yaratilgan edi. Rosululloh solollohu alayhi vasallamning muborak qabrlarining ziyyaratiga borish bid'at va zalolatdir. Shuningdek, unga ko'ra Rosululloh solollohu alayhi vasallam tug'ilgan kunini nishonlash – mavlid bayrami ham bid'at va foydasiz, Rosululloh solollohu alayhi vasallamdan qolgan osori atiqalarni tabarukan asrab-avaylamoq go'yoki

shirkdir. Rosululloh sollollohu alayhi vasallam va boshqa aziz avliyolar bilan duolarda tavassul qilmoq, qabrlarni ziyorat etmoq va shu kabi bir qancha joriy amallar «bid’at» «tavhid aqidasiga zid» bo’lgan. «Salafiyalar» tasavvurida yuqoridagi aziz va mo’tabar an’analar johiliyat davridagi but-sanamlarga

Ibodat qilishga tenglashtiriladi.

Soxta salafiylarni fatvolari haqida gaplashsak, ular Alloh taolo haqida:

1. Alloh azza va jallaning ikki ko’zi bor.
2. Salafiylik da’vati muassisni Alloh taoloning o’zidir.
3. Alloh taoloning boldiri bor.
4. Alloh taoloning haqqoniy qo’li bor.
5. Kulish Alloh taoloning sifatlaridan biridir.
6. Ajablanmoq Alloh taoloning sifatlaridan biridir.
7. Iymon Alloh taolo osmonda mavjud deb iymon keltirish bilan bo’ladi, degan fikrlarni ilgari surishadi. Shuningdek, Payg’ambar alayhissalom haqlarida ham aytishadiki: 1. Rosululloh sollollohu alayhi vasallam onda-sonda ijтиҳод qilardi. Ko’pincha ijтиҳodi tog’ri chiqardi. Lekin ahyon-ahyonda ijтиҳodida haqiqatga muvaffaq bo’lmасди, aksincha, xato ijтиҳod qilardi. Shunda ul zotni to’g’ri yo’lga yo’llash uchun vahiy nozil bo’lardi. 2. Rosululloh sollollohu alayhi vasallam insonlarga etkazgan oyatlarni esidan chiqarib qo’yishi ham mumkin bo’lgan. 3. Rosululloh sollollohu alayhi vasallamning fe’li va qavli bir-biriga teskari chiqib qolsa, qavliga suyanamiz, degan aniq ilmga suyanilmagan fikr mulohazalarni ilgari suradilar. Shunga o’xshash narsalarda xalqni fikrini chalg’itish va dinni hali yaxshi bilmaydiganlarga noto’g’ri ma’lumotlar bilan, ularning ongлarini zaharlab ixtiloflar chiqarishni keng tus oldiradilar. Bu esa dastlab, ularning o’rgimchak to’riga tushganlarning ongida radikal qarashlarni, atrofdagilarni hammasi go’yo munofiq ko’rinishida vasflanishini so’ngra mutaassiblik ruhini uyg’otadi. Kishi soxta salafiylardan o’zgalarni tan olmaydilar va jamiyatimizda ilm-ma’rifat tarqatayotgan imomlarni saroy mullalari deb atashgacha olib boradi. Go’yo imomlar islomga qarshi fatvolar berayotgandek. Mahalliy imom domlalarning maruzalarini eshitayotganlar esa mutaassib kayfiyatdagi kishilar uchun huddi oq bilan qorani ajrata olmaydigan kishilar kabi ko’rinishadi. Undanda xavfisi esa mutaassiblik ruhidan ekstremistik ruhni shakllanishidir. Bu soxta salafiylarning avom xalqga eng katta tahdidlaridan biridir ya’ni bu jarayonda inson ularni materiallarni boshqalar bilan ham ulasha boshlaydilar. Bu degani mas’ul shaxs ularni a’zosiga aylanganini anglatadi. Respublikamizda shunday ishlarni oldini olish maqsadida, bunday buzg’unchiliklarga qarshiliklar qonun bilan mustahkamlab qo’yilgan. Xususan, ma’muriy javobgarlik qonunchiligiga binoan: 184² - moddaga ko’ra «Diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, ularni tarqatish va saqlash taqiqilanadi» deya yozib qo’yilgan. Bunday chora tadbirlar aholini tinchligi va farovonligi uchundir. Yana dinimizni qadriyatlarimizni asrashlik uchun Prezidentimiz

ham ta'kidlab o'tadilarki: «Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da'vat etadi. Biz dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz . Biz muqaddas dinimizni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadiganlarni qa'iylar qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz»

Soxta salafiyarlarning faoliyatlari davomida amalga oshirgan ishlari. Tarixdan ma'lumki har davrda soxta salafiyalar odamlarni ongiga g'ulg'ula solish, insonlarning ongini zaharlash va turli-xil fitnalarni asoschilari bo'lib kelishgan. Shu bilan birga soxta salafiyalar ko'plab qo'poruvchilik ishlarini ham amalga oshirganlar. Undan ham yomonrog'i esa soxta salafiyalar turli firqalar shakllanishiga va ular salafiyarlarning ixtilofli g'oyalaridan ta'sirlangandirlar.

Ibn Taymiya va uning izdoshlari aqida va ibodat masalalariga ko'proq e'tibor qaratishgan bo'lsa, soxta salafiylikning undan keyingi izdoshlari siyosiy islohotlarni amalga oshirish zarurligini bayroq qilib ko'tardilar. Bu islomning siyosiylashuvi kuchayishiga va «islom xalifaligini tiklash» g'oyalarining keng yoyilishiga olib keldi. Ular bu ishlarini amalga oshirishdagi eng ishongan qurollari bu dinni niqob qilib olish edi. Ular asrlar davomida o'zgarmay kelayotgan dinning arkonlariga turli o'zgartirishlar kiritib shu yo'l bilan o'zlarini qo'poruvchilik harakatini amalga oshirib kelishmoqda. Masalan, biz bilamizki ahli sunna val jamoa e'tiqodiga ko'ra islom dini arkonlari beshta, bular iymon, namoz, ro'za, zakot va hajdir. Soxta salafiyalar esa shu arkonlarning oltinchisi esa jihod degan o'zlarini qo'shtirnoq ichidagi ijтиҳодларини ilgari surdilar. Bu o'z navbatida «al-Ixvon al-muslimun», «al-Jihad al-islamiy», «Shabab Muhammad», «at-Takfir val-hijra» kabi o'ta radikal ekstremistik diniy-siyosiy tashkilot va oqimlarning vujudga kelishiga yo'l ochib berdi. Ular qabrlarni ziyorat qilishni rad etib, ko'plab insonlar Payg'ambar alayhissalomni qabrlarini ziyorat qilmasliklari uchun 20-asrning oxirida Makkaga hujum uyuştiradilar va umum xalq tomonidan ularning hujumlari bostiriladi. Shu tariqa, soxta salafiylik harakatlari Arabiston yarim oroli mamlakatlaridan siqib chiqariladi. Bu voqealardan so'ng, ular boshqa mintaqalarda faoliyat yuritish uchun tarqab ketadilar. Xususan, ular Afg'oniston hududiga borib joylashadilar. O'tgan asrning 70-yillari oxirida boshlangan afg'on mojarosida diniy omildan foydalanishi natijasida ushbu g'oyalar ayrim ekstremistik oqimlar tomonidan "jihod" g'oyasining o'ta radikal mazmunda talqin etilishiga olib keldi. Bu esa, o'z navbatida Afg'onistonda soxta salafiylikda jihodchilik qarashlarining kuchayishiga asosiy zamin yaratdi. "Tolibon", "al-Qoida" kabi harakatlar ushbu davlat xududini jihodchilar tayyorlanadigan harbiy lagerlarga aylantirdi. Ular bunday lagerlarda, o'z ishini yaxshi mutaxassislarini ya'ni xakkerlarni, o'zlariga jalg qilib, ular orqali barcha musulmon mamlakatlarni ichida ko'plab fitnalar chiqishiga, ko'plab ixtiloflarga va mazkur davlatlardagi ulamolarni obrosizlantirishga katta e'tibor bergenlar. Soxta salafiyarlarning iddaolari xatoligi ya'ni ular jihodga da'vat

qilishadiyu lekin o‘zлari safda ko‘rinmaydilar, ular mujohidga jannatdagi ne’matlarni va’da qilishadiyu, lekin o‘zлari bundan chekinadilar. Aynan soxta salafiyarlari insonlar ongini zaharlashlari moliyaviy foyda xolos. Dinni esa faqat niqob qilib foydalanayotganlari katta xatolaridir. Soxta salafiyarlari bundan ko‘zlagan maqsadlari esa sekulyarizm (dunyoviylik) va davlatning demokratik tamoyillarini qoralash, inkor qilish hamda davlat to’ntarishini amalga oshirish orqali hokimiyatni qo’lga kiritish va xalifalikka asoslangan tuzumni o’rnatish soxta salafiyarlarning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Xozirgi kunda soxta salafiylikka mansub hisoblanadigan yuzdan ortiq tashkilot faoliyat olib bormoqda. Ular qatorida «at-Tavhid val-jihad» (Falastin), «At-tali'a al-muqotila» (Suriya), «Fath al-islam» (Livan), «Jaysh al-Quds al-islamiy» (Iordaniya), «Xarakat ash-shabab al-mujahiddin» (Somali), «Jaysh Abi Bakr as-Siddik, as-salafi» (Irok,), «Xumaat ad-da’va as-salafiya» (Jazoir) «al-Jihadiya as-salafiya» (Marokash), «Turkiston islom harakati» (“TIX”, hozirda «O’zbekiston islom harakati»), «Ittihad al-jihad al-islamiy» (“TIX” tarkibidan ajralib chiqqan guruh,) va boshqa bir qator tashkilotlarni sanab o’tish mumkin.

Soxta salafiyarlarning hozirgi kundagi faoliyatları, ularning tahdidlari va uning yechimi. Hozirgi kunimizda butun dunyoni tashvishga solayotgan narsa bu yoshlar ichida soxta salafiyarlari tarafдорлари ko‘payib borayotganidir. Bu bemazhablarning xavotirga soluvchi jarayonlari kundan kunga o’sib bormoqda. Bunday g’arazli ishlarga qarshi ko’plab chora tadbirlar ham amalga oshirilmoqda. Dastavval, Soxta salafiylik g’oyalari 19-asrning ikkinchi yarmidan o’z oldiga xalifalikka asoslangan islom davlatini barpo etish vazifasini qo’ygan “islohotchilik”, “panislomizm” niqobi ostida yangidan jonlandi. «Islohotchi salafiyarlari» nomini olgan bunday mafkura targ’ibotchilari hisoblangan Jamoliddin Afg’oniy (1839-1897), Muhammad Abdux, (1849-1905) va Abdurahdon Kavakibiy (1854-1902) lar tomonidan «musulmon xalqlarining diniy-siyosiy ittifoqi» g’oyasi ishlab chiqildi. Ular bu g’oya ostida an’anaviy mazhablardan voz kechish va islomning ilk davriga qaytishga da’vat qildilar. Qanday shaklda chiqmasin va qanday g’oya ostida harakat qilmasin soxta salafiylikning buzg’unchi mohiyati o’zgarmay qolmoqda. Ular har qanday yangilikning “bid’at” hisoblanishida, an’anaviy mazhablarning inkor qilinishida, tasavvufning umuman tan olinmasligida hamda qabristonlarni ziyyarat qilish mumkin emas deb e’tirof etilishida ham soxta salafiylikning buzg’unchi tabiat yorqin namoyon bo’ladi. Ular o’zlarini bunday qabih ishlarini asosan internet orqali amalga oshirib bormoqdalar. Yoshlar orasida endi diniy amallarni o’rganayotgan yoki uyida sog’lom diniy muhit shakllanmagan insonlarni o’zlarininig o’rgimchak to’rlariga ilintirish ular uchun ayni muddaodir. Shuningdek, soxta salafiyarlari baxslardan qochuvchi insonlar hisoblanib, ularni o’ljalari faqat ilm va saviyasi past bo’lgan avom xalqdir. Soxta salafiyarlari internet platformalaridan insonlarni aldash, adashtirish va kishini mutaassib

ruhga tushurib qo'yish uchun dastlab, dezinformatsiya – yolg'on axborot tarqatadilar so'ngra bu axborotga ishonib ular bilan bog'langan shaxslar bilan alohida shug'ullanadilar. Shu tariqa ular bilan qiziqib qolgan kishilarni asta sekin manipulyatsiya – ta'sir o'tkazuvchi, o'zlariga rom etuvchi ma'ruzalar bilan doimiy obunachilariga aylantirishadi. Bunday jarayonlar insonda mutaassiblikni uyg'otib, soxta salafiyarning ma'ruzalaridan boshqasini eshitmaydigan va boshqa maruza qiluvchilarni tan olmaydigan bo'lib qoladilar. Yana shunga o'xshash bir qancha o'zlarininig taylorlab qo'ygan metodlarini qo'llashadi va buning natijasi, ularning to'riga ilingan shaxs, o'zi yashab turgan davlatidagi ulamolarni hammasini kufrda deb, atay boshlaydilar. Soxta salafiyalar davlat tizimi va konstitutsiyani qattiq qoralab insonlarda hukumatga qarshi chiqaruvchi, qabul qilinayotgan qonunlarni va farmonlarni qattiq qoraluvchi kayfiyatni paydo qiladilar. Bunday ishlar asosan xalqni o'rtasida ixtiloflarni chiqarib xalqni o'zi bilan o'zini ovora bo'lib qolishiga olib keladi. Shuningdek, soxta salafiyalar internet platformalarida turli nomlar bilan faoliyat yuritadilar. Bunday nomlarni xalqga e'lon qilishlik masalani yechimi hisoblanmaydi. Chunki ular o'zlariga boshqa yana bir nomni qoyib faoliyatlarini davom ettirishlari mumkindir. Bunday ishlarga qarshi eng yaxshi yo'l esa bu xalqni o'zida ularga qarshi immunitetni shakllantirishdir. Shunda insonlarning o'zлari ularning ig'voli harakatlariga duch kelganlarida aldanib qolmaydilar va diniy ilmlarni o'z egalaridan o'rganish kerak ekanligini anglaydilar. Aynan shunday jarayonlar hozirgi kunimizda maktab, litsey va oliygochlarda «Jaholatga qarshi ma'rifat» mavzusi doirasida o'tkazilib borilmoqda. Shuningdek, ko'plab radikalizmga qarshi, keng fikrlashni targ'ib qiluvchi va milliy qadriyatlarimizni mustahkamlashga qaratilgan hamda soxta salafiyalar va yana shunga o'xshash firqalarga qarshi immunitetni shakillantirishga xizmat qiluvchi adabiyotlar ham chop etilib kelinmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytar ekanmiz, bugungi kunda avj olgan soxta salafiylik ham ummat uchun balo bo'lgan oqimlardan biridir. Undan saqlanish va qo'shilib qolmaslik uchun bu haqda imkon qadar to'liq ma'lumotga ega bo'lismiz kerak. Shu bilan birga, sahoba, tobein va taba'a tobeinlar yo'li bo'l mish Ahli sunna val jamoani e'tiqodini puxta bilishimiz lozim. Hozirgi kunimizda yoshlar ongiga ta'sir o'tkazayotgan soxta salafiyalar va yana shunga o'xshaganlarning tahdidlariga qarshi immunitet hosil qilishlik uchun ham ularni qarashlarini o'rganib chiqishimiz zarurdir. Bu huddiki, haqni tanishdan maqsad uni tanib, ma'rifat hosil qilish va unga ergashmoq. Botilni bilishdan maqsad esa uni yaxshi bilib olish va undan tiyilishdir. Ha botildan saqlanish uchun avval uni tanish kerak. Botilni bilmagan kimsa o'zi sezmag'an holda unga aralashib qolishi hech gap emas. Har qanday ezgu niyat va maqsadni amalga oshirish, avvalo, jamiyatdagi mustahkam tinchlik va xotirjamlikka bog'liq. Bu barcha zamonlarda o'z isbotini topgan haqiqatdir. Sir emaski, hozir dunyoning ayrim mamlakatlarida siyosiy beqarorlik hukm surayotgan bo'lsa, boshqa bir o'lkada

terorchilik, millat tanlamas illatlar xalqaro xavsizlikka tahdid solmoqda. Bu kabi holatlar esa bizning tinch va farovon hayotimizning mustahkam asosi bo'lgan istiqlolimizga shukrona qilish, qadriga yetish va uni ko'z qorachig'idek asrabavaylashga undaydi. O'zbekistonda istiqomat qilayotgan turli din va millat vakillari o'rtaida totuvlik ta'minlanmoqda. O'zbekistonagi diniy konfessiyalar o'rtaсидаги hamjihatlik rishtalari tarixiy an'analar bilan bir qatorda huquqiy va ijtimoiy asoslar bilan ham mustahkamlandi. Bu mamlakatimiz Konstitutsiyasining 19-moddasiga binoan quyidagicha aks etgan: «Barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, diniy e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar qonun oldida tengdir». Demak, kechayu kunduz bu ne'matlarning shukronasini ado etib bormog'imiz lozim bo'ladi. Zero, Qur'oni karimda shunday deyiladi: «Agar (bergan ne'matlarimga) shukr qilsangiz, albatta, (ularni yanada) ziyoda qilurman» (Ibrohim surasi, 7-oyat).

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tojoboyev, Botirjon «Salafiy»larga ilmiy raddiyalar [Matn] / Botirjon Tojivoyev, Yunusxon Mamarasulov. - Toshkent: Azon kitoblari, 2021.-180 b.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf mazhablar birlik ramzi - T.:«Hilol-Nashr», 2022.- 216 b.
3. Zayriyev, A., Qudratulloh, E. Soxta salafiyarning sayoz sabog'i [Matn]: diniy - ma'rifiy / - Toshkent; «Shamsuddinxon Boboxonov» NMIU, 2022, - 300 b.
4. Jaholatga qarshi ma'rifat : O'quv qo'llanma / Toshkent, «O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2019.- 212 b.
5. T-83 Tulepov, Aydarbek Islom va aqidaparast oqimlar. Ikkinchi nashr / Masu'l muharrir Shayx Abdulaziz Mansur,—T.:«Sharq», 2013. - 336b.